

“BOSHLANG’ICH SINFLARDA EKOESTETIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA KREATIVLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI”**Zulfizar Ortiqova***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Maftuna Alijonova***FarDU magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ekoestetik kompetensiya tushunchasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola ekoestetikani shakllantirishda kreativlikning o'rni va ahamiyati atroflicha yoritilganligi bilan ahamiyatlidir. Bir qancha namunalar, metodlar, yangi yondashuvlar orqali ekoestetikani shakllantirishda foydalaniladigan metodlarga namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ekoestetika, ijodkorlik, ekspeditsiya

Annotation: In this article, special attention is paid to the concept of ecoaesthetic competence in primary grades. The article is significant as it focuses on the role and importance of creativity in the formation of ecoaesthetics. Examples of methods used in the formation of ecoaesthetics through several samples, methods, new approaches are given.

Keywords: creativity, eco-aesthetics, originality, expedition

“Kreativlik” tushunchasi lotincha, inglizcha “create” - yaratish, “creative” - yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod degan ma’nosini anglatadi. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Kreativlik- bu so’zni sodda tilda tushuntiradigan bo’lsak, “yaratuvchanlik”, “ijodkorlik” degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko’nikmasidir. Kreativlikni har kim har xil tushunadi, lekin to’g’ridan- to’g’ri tushunadigan bo’lsak, kreativlik bu - ijodkorlik, ya’ni kreativ so’zi ijod degan ma’noni anglatadi. Uning tag zaminida esa orginallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Qisqa qilib, biror bir narsani ijod orqali boshqalardan chiroyli qilib chiqarib berish desak ham bo’ladi. Misol oladigan bo’lsak oddiy stulni tasavvur qilamiz. Stulning oddiysi bu to’rta oyog’i, bitta o’rindig’i va bitta suyanchig’i bo’ladi. Agar buni kreativlashtirsak, balki uchta oyoqli, o’rindig’i boshqacharoq bo’lishi mumkin, yoki dizayni umuman o’zgacha ko’rinishda bo’lishi mumkin.⁴¹

⁴¹ Oripova Muslima Ulug’bek qizi, “Kreativlik tushunchasi, mazmun mohiyati va uning nazariy metodologik asoslari”, “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jumali, October 2022.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ekoestetik kompetensiyani shakllantirish jarayonida kreativlik nima uchun kerak? Globallashgan, zamon taraqqiy etgan bir vaqtda yashamoqdamiz. Shunga muvofiq tarzda, inson ongi ham o'sib, yangiliklarga moyil bo'lib qolgan. Ya'ni bugun chiqqan narsa, ertaga eskidek ko'rinib qolmoqda. Ta'limda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. O'quvchilarni oddiy, an'anaviy dars modeli bilan e'tiborini jalb qilib dars o'tish, diqqatini qaratib olish ham mushkul ish. Bu albatta, pedagoglardan mas'uliyat, izlanuvchanlik va kreativlikni talab qiladi. Kreativlikni dars yoki to'garaklarni istalgan qismida qo'llash mumkin. Bunga faqat yangicha qarash va yondashuv kerak. Misol uchun, tasviriy san'at darsida "Oltin kuz" mavzusida rasm ishlash kerak bo'lsin. Sinfxonada, partada o'tirib rasm chizgandan ko'ra, maktab hovlisida rasm chizish bolalar uchun qanchalik yoqimli deb hisoblaysiz? Yoki o'quvchilar ekspeditsiyaga olib borilgan bo'lsin. Ularga quyidagi topshiriqni berish mumkin: sherigingiz bilan birgalikda, xotirangizda qolgan, ekspeditsiya vaqtida eslab qolgan tasviringizning rasmini chizing. Faqat shart shundayki, bir-biringiz bilan bittadan qo'lingiz bog'langan holatda bo'ladi. Bu o'quvchilar uchun odatiy usuldagi darsdan ancha qiziqarliroq bo'lishi aniq. Agar o'qituvchi har safar darsga mana shunga o'xshash kreativ g'oyalar bilan kirsam, kelasi darslari uchun o'quvchilarning o'zi tashbbus bilan chiqadi. Ya'ni kreativlik asta-sekin rivojlana boshlaydi. Chunki o'qituvchi o'z xislatlarini o'quvchilariga yuqtirish xususiyatiga egadir. Buni ekoestetik kompetensiyani shakllantirish misolida ko'rib chiqaylik. Ona tili yoki o'qish darslarida matn yaratish topshirig'ini berish mumkin, Bunda erta tongda (sahar vaqtida) uyg'oning. Tashqariga chiqing yoki derazadan qarang. Atrofni bir qator kuzatib, so'ng ko'zlaringizni yuming. 2 yoki 5 daqiqa gapirmang, faqat tabiatga quloq soling. Nimani eshitganingiz va his qilganligingizni 5 ta gapda ifodalang. Bu topshiriq orqali o'quvchilarning "eshitish" sezgisi rivojlanib, borliqni kognitiv bilish qobiliyati rivojlanadi. Fikrlarni badiiylashtirib yozishga harakat qila boshlaydi. Ertasi kuni esa quyidagicha topshiriq berish mumkin: bugun ham tabiatni tomosha qiling, ham eshiting, his-tuyg'ularingizni qog'ozga tushiring. O'quvchilarning avvalo, yutuqlari sanab o'tilib, so'ng kamchiliklari bartaraf etiladi. Namunali qilib bajarganlarga tashkkur izhor etiladi. «Men bu daraxt bilan suhbat qilmoqchiman», «Bu barg menga nimani eslatadi?», «Maktab hovlisidagi o'rik daraxti bilan suhbat» singari sarlavhali matnlar tuzish ham shular jumlasidandir. Bolalar bilan to'garaklarni ham kreativ tarzda tashkillash mumkin. Topshiriq shuki, bolalar uylarida o'zlari eng chiroyli deb bilgan tabiiy narsalarni faqat bittasini rasmga olib chiqarib kelishlari kerak. So'ng esa, ustoziga kelib, u bilan bog'liq biron narsani gapirib berishi kerak. Masalan, hovlisidagi atirgul yoki rayhon tasvirini rasmga olgan bo'lsin deylik. O'quvchi tahminan shunday deydi: «Bu gulni onam bahorda ekan. Hozir gulladi. Hovlimizda bunday gullar juda ko'p. Men ularni sug'orishda onamga yordamlashaman.

Menga gullarning xushbo‘y hidi yoqadi” kabi. Uyiga borib hech bo‘lmaganda onasidan uni qanday ekishni, qanday turlari borligini so‘rashini o‘zi ham katta gap. Qaysidir ma’noda o‘qituvchi ekoestetik kompetensiyani o‘quvchilarda shakllanishida kreativlikka suyangan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripova Muslima Ulug‘bek qizi, “Kreativlik tushunchasi, mazmun mohiyati va uning nazariy metodologik asoslari”, “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali, October 2022.
2. E.Umarov, R.Karimov M.Mirsaidova, G.Oyxovjayeva “Estetika asoslari”, Toshkent – 2006
3. Rahmatullaeva M.D. O‘smirlarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida tabiat estetikasiga qiziqishlarini shakllantirish. Ped. fan. nomz ... diss.
4. Rahmatova H.A. O‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (VII–IX sinf-lar misolida): Ped. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2005.
5. Rafiqov A.A. Tabiatda ekologik muvozanat. – Toshkent: Fan, 1990